

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASHNING HUQUQIIY ASOSLARI

Jumaniyazova Iroda Kurbanbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:04.06.2026

Revised: 05.06.2026

Accepted:06.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

Voyaga yetmagan shaxs, nogironligi bo'lgan bolalar, otana qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, bolalik, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, emansipatsiya, ijtimoiy yordam.

Ushbu voyaga yetmagan shaxs tushunchasiga, shuningdek davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar tushunchasiga izoh berilib, voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini nazarda tutuvchi amaldagi normativ –huquqiy hujjatlarni shu bilan bir qatorda xalqaro tajribada voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning yuridik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari hamda ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashning konstitutsiyaviy asoslari xususida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashning mustahkam konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, ushbu tizimni yanada takomillashtirishga ayniqsa kata e'tibor qaratilmoqda. Voyaga yetmaganlarning huquqlarini ishonchli himoya qilish — nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning ustuvor vazifasidir. Bu esa kelajak avlodning barkamol shakllanishi va jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Fuqarolik –huquqiy munosabatlarda nafaqat fuqarolik muomala layoqitiga ega fuqarolar, balki 18 yoshga to'lmagan, voyaga yetmaganlar ham o'zlarining fuqarolik subyektlilik maqomidan foydalanib ishtirok etishlari mumkinligi esa, O'zbekiston respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni alohida ekanidan dalolat beradi.¹

Voyaga yetmaganlar - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxslar bo'lib, ijtimoiy himoyaga muhtoj voyaga yetmaganlar sifatida yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar e'tirof etiladi, shu jumladan:

nogironligi bo'lgan bolalar— barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari mavjudligi oqibatida hayot faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan bolalar (bola);

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar;
yetim bolalar;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar –ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yoxud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganligi, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortganligi yoxud ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona yoki yagona ota (ona) qaramog'idan mahrum bo'lgan bola;

ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;

muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar;

kam ta'minlangan oilalardagi bolalar;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;

zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar.

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni

¹ "Voyaga yetmaganlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi" O'quv qo'llanma. —T.: «Aloqachi» nashriyoti, 2010, 5-bet

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori singari qator normativ –huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganligi voyaga yetmaganlarning huquqlarining himoyasi davlat va jamiyat uchun naqadar dolzarb masala ekanligining aniq misolidir. Bosh qomusimizda bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi alohida e'tirof etiladi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Shuningdek, bolalar ta'limi nafaqat yosh avlod kelajagi, balki butun jamiyat taraqqiyoti va ma'naviyati uchun zaruriy masala ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Konstitutsiyada har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan va ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ham inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilish mas'uliyati belgilangan. Shu bilan bir qatorda, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi qat'iy mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qator qonun hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi. Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi. Davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi. Bola huquqlari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

Har bir bola tug‘ilgan paytdan e‘tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo‘lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega. Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega. Har bir bola o‘z sha‘ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g‘ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalaniish huquqiga ega. Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas. Davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta‘minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo‘ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo‘pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g‘ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Davlat:

bolaga nisbatan ekspluatatsiya va zo‘ravonlikning barcha shakllarining oldini olish, shuningdek ularning sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

ekspluatatsiya va zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarga zarur pedagogik, psixologik, tibbiy, yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha choralar ko‘radi.

Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetguncha qonunga muvofiq to‘la muomalaga layoqatli deb e‘tirof etilgan (emansipatsiya) bola o‘z huquqlarini, shu jumladan himoyaga bo‘lgan huquqini mustaqil amalga oshirishga hamda majburiyatlarini mustaqil bajarishga haqlidir. Bola ota-ona va ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan suiiste‘molliklardan himoyalaniish huquqiga ega. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste‘mol qilganda bola o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so‘rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli. Bunday murojaatlarni

bola to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ijtimoiy yordam uni olish huquqiga ega bo'lgan har bir bolaga tayinlanadi. Davlat organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qat'i nazar, moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari quyidagilardir:

vasiylik va homiylikni belgilash;

bolani farzandlikka olish;

oilaga tarbiyaga olish (patronat);

ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, ijtimoiy himoya muassasalariga joylashtirish.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egadir. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ular oilalarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik shartlari asosida dasturlar ishlab chiqish tashabbuskori bo'ladi hamda zarur resurslar ajratadi. Ta'lim, tibbiyot va madaniy-ma'rifiy muassasalar nogironligi bo'lgan bolalarning hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning erkin harakatlanishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni tashkil etadi hamda bunga ko'maklashadi. Nogironlik belgilangan paytdan boshlab bola tegishli davlat organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturidan foydalanish huquqiga ega.

Markaziy Osiyo davlatlari Konstitutsiyaviy normalarida ham voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Qozog'iston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyalari misolida tahlil qilsak, bolalik davlat himoyasida ekanligi, har bir bola bepul o'rta ta'lim olish huquqiga egaligi qayd etilgan, shuningdek, har bir fuqaroga davlat ijtimoiy himoya qilish tizimini kafolatlashini va bu albatta, voyaga yetmaganlarga ham tatbiq etilishini nazarda tutadi.

Osiyo davlatlari Konstitutsiyalarida, xususan Hindiston Konstitutsiyasida bepul va majburiy ta'lim kafolatlangan, shuningdek, bolalarni xavfli ishlarda ishlatishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan. Janubiy Koreya Konstitutsiyasida esa, barcha bolalar ta'lim olish huquqiga ega ekanligi hamda ijtimoiy farovonlik huquqi ta'minlanishi ta'kidlangan.

Yuqorida keltirilgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish har qanday demokratik va ijtimoiy davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Ushbu davlatlarning asosiy qonuni —Konstitutsiyasi— bolalik, oila va onalikni davlat himoyasiga olgan bo‘lib, bu esa bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganini anglatadi.

Har bir ota-ona farzandini oqil, tarbiyali va el-yurt uchun foydali inson bo‘lishini xohlaydi. Ammo bu xohishni amalga oshirish uchun faqat istak yetarli emas, qat‘iy tarbiya ham zarur. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, bolaning yoshiga mos to‘g‘ri munosabatda bo‘lish uning kelajakda o‘z yo‘lini topishi va mazmunli hayot kechirishida muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida tarbiya jarayoniga kuchli e‘tibor qaratish lozim. Atrof –muhit, tabiatan ta‘sirchanlik va oiladagi nosog‘lom muhit kabi omillar voyaga yetmagan yoshlarga turlicha ta‘sir qiladi.² Shularni inobatga olgan holda hozirgi kunda voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlash borasida qator samarali chora –tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada e‘tiborni yanada kuchaytirish zarur bo‘lgan jihatlar mavjud. Xususan:

- huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, ya‘ni bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash samaradorligini oshirish maqsadida yoshlar o‘rtasida turli targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish, ularning o‘z huquqlarini anglashi va amalga oshirishlarida yordam beradi;

- ijtimoiy xizmatlar tizimini yanada rivojlantirish, voyaga yetmaganlar orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lganlarni aniqlash va bu vaziyatni bartaraf etishga doir tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmini yanada kuchaytirish;

- profilaktika ishlarini takomillashtirish;

- davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini yanada kengaytirish. Bu orqali voyaga yetmagan shaxslarning kafolatlangan huquqlarini ta‘minlash, zarur yordam va shart –sharoitlarni o‘z vaqtida yaratish hamda yosh avlodni jismonan va ma‘nan kamol toptirish doirasida ilgari surilgan maqsadlarga erishish imkoniyati ortadi.

Bola huquqlarini ta‘minlash nafaqat huquqiy majburiyat, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash va sog‘lom avlodni tarbiyalashning muhim omilidir. Shu bois, konstitutsiyaviy normalarni amalda samarali qo‘llash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va bolalar manfaatlarini har qanday siyosiy va ijtimoiy qarorlarning markaziga qo‘yish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

² Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish: o‘quv qo‘llanma/Abzalova Xurshida Mirziyatovna.-T.:TDYU nashriyoti,2025,58-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023
2. “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139-son.
3. “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son
4. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.1989.
5. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va uning Fakultativ protokollari. / O‘zbekcha nashr uchun ma‘sul muharrir A. X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2009.
6. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar / A.H. Saidov va boshqa.; Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, T.: “Vektra-Press”.
7. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish: o‘quv qo‘llanma/Abzalova Xurshida Mirziyatovna.-T.:TDYU nashriyoti,2025.
8. “Voyaga yetmaganlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi” O‘quv qo‘llanma. —T.: «Aloqachi» nashriyoti , 2010.